O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 25 - mart 125-10-0-Q/23 Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-мартdagi 34-sonli Farmoni ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi “Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va xodimlarning oila a’zolarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli Farmoniga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-martdagi 34-sonli Farmoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo‘mitasi va Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazining (keyingi o‘rinlarda — mas’ul vazirlik va idoralar) Vatan himoyasi va el-yurtimiz tinchligi yo‘lida yaralanganligi, kontuziya yoki mayib bo‘lganligi oqibatida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilari va xodimlarning oila a’zolari hamda ularning qaramog‘idagi shaxslarga (keyingi o‘rinlarda — halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar (xodimlar) quyidagi imtiyoz va kafolatlar berilganligi inobatga olinsin:

a) 2023-yil 1-apreldan boshlab:

halok bo‘lgan harbiy xizmatchi (xodim) oila a’zolariga biryo‘la beriladigan nafaqa marhumning oxirgi egallagan lavozimi bo‘yicha maoshi va harbiy (maxsus) unvoni maoshi yig‘indisining 150 baravari miqdorida belgilanganligi;

harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) davlat majburiy shaxsiy sug‘urtasi

doirasida harbiy xizmatchi (xodim) halok bo‘lganda to‘lanadigan sug‘urta summasi bazaviy hisoblash miqdorining 200 baravari miqdorida belgilanganligi;

Shahar va tuman hokimliklari mas’ul vazirlik, idoralar va bo‘linmalari bilan birgalikda ular tomonidan belgilangan miqdorlarda (mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 50 foizigacha bo‘lgan summadan oshmagan holda) mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan halok bo‘lgan harbiy xizmatchilarning (xodimlarning) tegishli hududda istiqomat qiluvchi oila a’zolariga har oy to‘lanadigan nafaqa tayinlash tartibini belgilash huquqi berilsin hamda tegishli tartibda amalga oshirilsin;

b) 2023-yil 1-maydan boshlab:

oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a’zosiga boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi, pensiyani hisoblab chiqish uchun olinadigan pul ta’minotining (ish haqining) 50 foizi miqdorida belgilanadi;

oila a’zolari (ota-onasi, turmush o‘rtog‘i, 23 yoshga to‘lmagan farzandlari) daromadlar qaysi oyda olingan bo‘lsa, o‘sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 3 baravari miqdoridagi daromadlar bo‘yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan ozod etiladi;

belgilangan tartibda turarjoyga muhtoj deb tan olingan taqdirda, turarjoy bilan birinchi navbatdagi tartibda ta’minlanadi;

qonunchilikda belgilangan harbiy xizmatchilarga (xodimlarga) turarjoy sotib olish (qurish) uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari berish tartibiga muvofiq uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlarini olish huquqi saqlab qolinsin;

halok bo‘lgan harbiy xizmatchining (xodimning) yangi nikohga kirmagan turmush o‘rtog‘i va (yoki) harbiy xizmatchining (xodimning) qaramog‘ida bo‘lgan ota-onasidan biriga O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining harbiy xizmatchilariga turarjoyni ijaraga olganlik (ijarada turganlik) uchun har oylik pul kompensatsiyasini to‘lash tartibi tatbiq etilsin (mulkida turarjoy bo‘lmagan taqdirda).

4. Mazkur qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib viloyat mudofaa ishlari boshqarmasi A.Rustamov, Viloyat ichki ishlar bosh boshqarmasi (T.Aripov), Davlat xavfsizlik xizmati boshqarmasi (N.Raximov), va Milliy gvardiya boshqarmasi (D.Nortojiyev) belgilansin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Fayziyev zimmasiga yuklansin.

Toshkent viloyati hokimi **Z.Mirzayev**